



BADIIY OBRAZLAR VA ULARNING TAVSIFI.

Mohipari Oybek qizi Abduolimova

Andijon davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda badiiy obrazlar va ularning tavsiflanishi tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotda obraz terminining kelib chiqishi va ularni qo'llash doiralari hamda til vositalari orqali tasvirlanishini keng ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar : *obraz ,tasvir .til vositalari.umumlashganlik,individuallik,aks, lug'aviy ma'no.*

KIRISH

Badiiy ijod so'z tanlashdan boshlanar ekan har bir ijodkor uchun so'zni his qilish , oddiy so'zni ham san'at darajasida qo'llab uni mukammal badiiy vositaga aylantirish nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bunday so'z asarning qaysi qismida qo'llanilishiga qarab aniq badiiy maqsadni ifodalashga yoki ma'lum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Zero so'z estetik ta'sir vositasi hisoblanib, muallif so'z orqali ma'no xilma-xilligi, shakliy turfaliklarni teran anglashga intiladi. Badiiy asarlarda so'z hayot voqeligini aks ettirish uchun material, vosita vazifasini bajaradi. Adib, shoir voqelikning muayyan ko'rinishi, kishilarning holat, harakat kechinmalarini aniq va ta'sirchan ifodalaydigan so'zlardan foydalanadilar hamda yorqin badiiy obrazlar yaratadilar. Ushbu so'zlar kishilarning ongiga ta'sir etib, ularda hayotning muayyan voqeligi, insoniy kechinma, tuyg'ulari badiiy til orqali tasavvur uyg'otadi. Badiiy obraz esa insonlarning ongiga o'rnashib, qalbida yashaydi, , ularning kundalik turmush tarzini aks ettirib , orzu- armonlari, xoxish-istaklarini namoyon etadi.

Badiiy obrazni yaratar ekan, muallif ijtimoiy va shaxsiy tajribaga, poetik an'anaga, til vositalarining ekspressiv-ifodali imkoniyatlariga va eng avvalo so'zning potensial imkoniyatlariga tayanadi.

T.D.Gachevning fikricha, olamning milliy obrazi quyidagilarni o'z ichiga oladi : milliy makon , turmush, til; milliy xarakter ,milliy qalb; tafakkurning milliy xususiyati, olamni idrok qilish usuli, turmushga nazar, qadriyatlar ketma-ketligi. Har bir davr esa o'z obrazlarini keltirib chiqaradi.

Badiiy obraz eng muhim estetik kategoriya sifatida borliqni idrok qilishning alohida uslubi, uni alohida his etishning natijasidir va shuning uchun ham ma'lum madaniyatning elementi sifatida qaralishi mumkin.

San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglayanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi.

“obraz “ atamasi rus tilidan olingan bo'lib , o'zbekcha tarjimada “aks” degan ma'noni anglatadi. Masalan , kishining oynadagi aksiga nisbatan ham obraz so'zi ishlatiladi. Ammo bilamizki, so'zning lug'aviy ma'nosi va istilohiy ma'nosi farqlanadi :



lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no o'rtasida bog'liq nuqtalar mavjud bo'lsa-da, mutaxassis istiloh tagida konkret ma'noni tushunmog'i lozim. Shunga ko'ra "obraz" deyilganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obraz nazarda tutiladi.

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, balki u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosda qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, lekin bu biz bilgan oddiygina borliqning o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik –badiiy borliqdir.

Badiiylik hayotni jonli va ta'sirli qilib tasvirlashning umumiy belgisi, o'xshash qilib qayta yaratilgan olamning tirikligini mo'jizakorligini, ta'sirchanligini ta'minlovchi hodisadir. Ya'ni badiiylik badiiy ijodning hamma unsurlarini qamrab oladi. Shuningdek obrazlilik badiiylik ichida yashab, uning mohiyatini o'zida tashiydi. Shu sabab obraz tushunchasi adabiyot ilmining bosh masalalaridan sanaladi, chunki unda obrazlilikning mohiyati borligicha namoyon bo'ladi. Demak, yozuvchi – san'atkorning butun salohiyati u yaratgan obrazlarda namoyon bo'ladi.

"Obraz" atamasi "raz" ("chiziq") so'zidan olingan bo'lib, "raz" so'zidan "razit" ("chizmoq, o'ymoq, yo'nmoq"), va undan "obrazit" ("chizib, yo'nib shakl yasamoq") so'zi yzsalgan. "Obrazit" dan "obraz" ("umuman olingan tasvir") vujudga kelgan. Obraz nazariyasi, dastavval, Aristotel ("Poetika") estetik qarashlarda uchrasa-da, unga birinchi bor nemis faylasufi Gegel ilmiy ta'rif bergan ("San'at obrazlar orqali fikrlashdir."), rus tanqidchisi V. Belinskiy tomonidan mukammallashtirilgan. Uning ta'kidlashicha, san'atdagi eng oliy predmet – inson hisoblanar ekan, demak, "obraz" atamasini insonga nisbatan (badiiy asardagi insonga) qo'llash ma'quldir.

Shu sababdan birgina obraz mohiyatida yuzlab kishilarga xos xislat va belgilarni ko'rish, "tanish bo'lgan notanishlarni" uchratish mumkin. Shu bilan birga badiiy obrazlar olami ham xuddi hayot kabi turfa xildir. Shunga ko'ra obrazlar rang-barang va ko'p qirralidirki, bu o'z navbatida har bir obrazning xarakterli aniq qiyofasi, o'ziga xos aniq qiligi, madaniyati, salohiyati bo'lishini taqozo etadi. Ana shundagina badiiy obraz jonliligi va tabiiyligi bilan kitobxon qalbidan joy oladi. Chunonchi A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Zaynab, O'zbekoyim, Mirzakarim qutidor, Oftoboyim kabi bir-biriga o'xshamaydigan individual shaxslar obrazi ko'z o'ngimizda jonlanadi. Birgina dalil "Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bolsin uzoq so'zlashib o'lturmaydur. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birotasining so'zlari yo kengashlari bo'lsa kelib hojining yuziga qramasdan so'zlay beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydilar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'b" deydir, gapga uncha tushunmasa "xo'sh" deydir, noma'qul tushsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan



kifoyalaniib, mundane boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan oshmaydir" ...

Ko'rinyaptiki, yozuvchi Yusufbek hojining fe'lini aniq va kitobxon ishonadigan (uning xarakteriga,yoshiga salohiyatiga mos) tarzda individuallashtirmoqda, ayni paytda, uning asosidagi umumlashtirish va ikkala unurning ham hayotiy yaxlitligi Yusufbek hoji obrazining jozibadorligini ta'minlamoqda. Demak umumlashmadan individuallik , individuallikdan umumlashmalik tug'ilgandagina ,aniqrog'i ,bir - birlarining ichlarida mujassamlashgandagina yaxlitlik vujudga kelib, obraz betakrorlikka, jonlilikka, ta'sirdorlikka erishadi. Obraz tug'iladi va muntazam yashaydi.

Demak , obraz - san'at asari ,qaysiki, musavvir chizadigan, naqqosh naqsh soladigan, haykaltarosh toshga o'yadigan va nihoyat san'atkor - yozuvchi so'z bilan yaratadigan sa'at asaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.D.Quronov."Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari",T."Navoiy universiteti",2018.
- 2.A.Ulug'ov"Adabiyotshunoslik nazariyasi",T."G'afur G'ulom",2018.
- 3.O.Azizov."Tilshunoslikka kirish",. O'qituvchi",1996.
- 4.Falsafa, "Sharq", Toshkent,1999.
- 5.Milliy istiqlol g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar, "O'zbekiston",5.Toshkent,2000
- 6.I.Qo'chqortoyev. Badiiy nutq stilistikasi.- Toshkent:ToshDU nashri.1975.B.47-74
- 7.A.Qodiriy "O'tkan kunlar " romani
- 8.www.ziyonet.uz